

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLUKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

*Israilov N. R.*Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi
nodirtemur90@gmail.com**LYUDOVİK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola Fransiya qiroli Lyudovik XIV davrida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Fransiya oʻrganilishi masalasiga bagʻishlangan. Unda fransuz qiroli boshqaruvi davrida Sohibqiron tarixini oʻrganishga sabab boʻlgan omillar ana shu davr siyosiy muhitni tahlil etgan tarzda yoritilgan. Temurshunoslikning ilmiy rivojlanishiga hissa qoʻshgan Senyor de Senkton, Jan Sharden, Bartelemi dʼErbelo de Molenvil, Peti de la Krua kabi fransuz tarixshunoslari tadqiqotlarida Amir Temur shaxsi va davlat boshqaruviga oid maʼlumotlarga munosabat bildirilgan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, “Sohibqiron”, Sharafiddin Ali Yazdiy, Lyudovik XIV, Jan-Batist Kolber, Senyor de Senkton, Jan Sharden, Bartelemi dʼErbelo de Molenvil, Peti de la Krua, “Buyuk Tamerlan tarixi”, “Sharq kutubxonasi”.

KIRISH

1661-yilda kardinal Mazarinning vafot etishi natijasida Fransiya hukumat boshqaruvi toʻliq holda Lyudovik XIV (1638-1715) nazoratiga oʻtgan. Ichki siyosatda zodagonlar qarshiligini sindirish, protestant huquqlariga cheklovlar kiritish kuchaydi. Matbuot hamda matbaa uylariga qattiq sensuzra joriy etildi. Fransuz qirolining noshirlik sohasidagi qattiqoʻllik siyosatiga qaramay, Amir Temur faoliyati yoritilgan asarlar Fransiya chop etilishda davom etgan [10]. Bu esa Amir Temur tarixini oʻrganishga hech qanday toʻsiq boʻlmaganligini koʻrsatadi. Chunki, Lyudovik XIV ning oʻzi ham, mutlaq monarxiyani mustahkamlashda Amir Temurning tajribalaridan foydalanishdan manfaatdor edi. Masalan, 1677-yilda “Buyuk Tamerlan tarixi” nomi qayd etilgan tadqiqot Senyor de Senkton tomonidan nashr etildi [10]. Fransuz tarixshunosi qirol Lyudovik XIV ga murojaat etib, Amir Temur tarixini zodagonlarga, ayniqsa, qoʻshinlarga boshchilik qilayotgan qoʻmondonlarga oʻrgatish taklifini yuborgan. Shuningdek, askarlarga Sohibqiron hayoti davomida koʻrsatgan harbiy mahoratini namuna sifatida yetkazish zarurligi, bu esa ularni buyuk ishlarga yetaklashiga mumkinligiga toʻxtalgan [10: 4-b].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib Osiyo qit'asida mustamlakalar uchun kurashda Fransiya asosan Angliya va Gollandiya bilan raqobat qildi. Shu munosabat bilan Eron hamda Hindistonga 1664-yilda elchilar yuborildi [9:243-b]. Elchiliklar natijasida fransuz savdogarlariga mazkur hududlar bo'ylab tijorat bilan shug'ullanishlari uchun yangi imkoniyatlar taqdim etildi. Parijda tug'ilib, faoliyatini diniy mojarolar tufayli London hamda Amsterdamda davom ettirgan Jan Sharden (1643-1713) Kichik Osiyo, Gruziya, Armaniston, Fors mintaqasi hamda Hindiston bo'ylab sayohat qilib, zargarlik buyumlari savdosi bilan shug'ullandi. O'z safari davomida sharq davlatlari boshqaruv tizimi, xususan, Fors shohlarining monarxiya tizimi haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan Jan Sharden asari 1686-yilda Parij, London hamda Amsterdam kabi shaharlarda fransuz tilida nashr ettirildi [5; 6; 7]. G'arbiy Yevropa hukmdorlari manfaatlariga mos kelgan "Ritsar Shardenning Forsdagi sayohat jurnali" deb nomlangan mazkur tadqiqotidan Amir Temur tarixi bilan bog'liq bo'lgan fikrlar ham o'rin olgan [6:340-341-b]. Masalan muallif, Fors shohi Abbos II (1632-1666) tomonidan savdogarlik bilan shug'ullanishi uchun berilgan patent va undagi belgilar, so'zlar hamda ranglarning ma'no va mazmuniga to'xtalgan. Xususan, ijozatnomadagi qadimgi turk tilida "Zels Ziozoumis" ya'ni "men gapiraman" yoki "menning so'zlarim" degan ma'no beruvchi ushbu so'zlar, dastlab, Fors mintaqasida Amir Temur tomonidan tujjorlarga taqdim etilgan ruxsatnomalarda qayd etilgan [6:273-b]. Jan Sharden ma'lumotiga ko'ra, Sohibqiron tomonidan joriy etilgan mazkur so'z birikmasi hanuzgacha Kichik Tartariya*da muomalada bo'lib, hatto Fors shohlari ham o'z patentlarida saqlab qolgan [6:273-b]. Amir Temur davridagi rasmiy hujjatlarning tili va tuzilishini tilishunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etgan zamonaviy o'zbek olimi Qosimjon Sodiqov asarlarida ham fransuz sharqshunosining fikrlariga uyg'un qarashlarning mavjudligi e'tiborlidir [3:257-259-b].

Shuningdek, muallif "Sohibqiron" so'zining mazmuni va mazkur unvonning ahamiyati haqida Fransiyada sharqshunoslar orasida birinchi bo'lib so'z yuritgan olimdir. Jan Shardenning mulohazasiga binoan, XVII asrda ham Hindiston va Fors hukmdorlari orasida "Sohibqiron" unvoniga mos bo'lish hamda erishish eng ulug'vor maqsad bo'lgan [6:275-b]. Bunday darajaga dunyoda birinchi bo'lib Amir Temur sazovor bo'lganini ta'kidlagan Jan Sharden, "Sohibqiron" unvoniga erishgan shaxslarni markaziy va janubiy Osiyoda "Asr ustasi" deb atashlarini ta'kidlaydi [6:275-b]. Olim mazkur masala yuzasidan o'z ilmiy munosabatini sayohatlari davomida uchratgan ma'lumotlari asosida bayon etgan. Darhaqiqat, XVII asrda Boburiylar saltanati podshohi Shoh Jahon ham "Sohibqiron" deb ham atalgan [11].

Fransiya Levant savdo yo'li mintaqasida ham o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida Usmonlilar imperiyasi hamda Shimoliy Afrika davlatlari bilan diplomatik aloqalarni tartibga soldi. Bu esa o'z navbatida mamlakatda sharqshunoslarga bo'lgan talabni yanada orttirib, qirol Lyudovik XIV mutaxassislar tayyorlash masalasini o'z nazoratiga olgan. Shu bois, 1669-yilda bosh vazir Jan-Batist Kolber ma'sulligida tashkil etilgan "Yosh tilshunoslar maktabi" (École des Jeunes de langues) o'z faoliyatini boshladi [12]. Fransuz hukmron doiralarining siyosiy va iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga bo'lgan urinishlari ta'siri, mamlakatda tarix fani katta yutuqlarga erishdi hamda jahonga manbalarni tanqidiy o'rganishning zamonaviy metodologiyasini taqdim eta boshladi. Bu esa, qo'shni davlatlarda orientalistika fani bilan tadqiqot olib borgan fransuz mutaxassislarini o'z yurtlariga qaytishlarini kuchaytirdi. Sharqshunos olimlarning o'zga yurtlarda mehnat qilishlari Fransiya uchun haqoratga teng deb topildi. Shu tufaylik, Lyudovik XIV davridan boshlab asosan Apenin yarim oroli hamda Kichik Osiyoda mintaqasida yashab, izlanishlar olib borgan sharqshunoslarga ijobiy munosabatda bo'lish va moliyaviy rag'batlantirish hukumat siyosati darajasiga yetdi. Ilmiy faoliyatini asosan Italiyada o'tkazgan Bartelemi d'Erbelo de Molenvil (1625-1695) shunday orientalistlardan biri bo'lib, bosh vazir Kolberning taklifiga binoan Parijga qaytgan. Olim vataniga qaytgach, Lyudovik XIV bilan bir necha marotaba uchrashib, ilm sohasida suhbatlashgan. Qirol hurmatiga erishgach, olimga bir yil uchun 1500 funt sterling maosh tayinlangan [4:I-b]. XVII asr o'rtalarida narx-navo yuqori bo'lgan Angliyada mazkur mablag' uchun 70 t bug'doy, 32 t mol go'shti, 20 t saryog', 27 t pishloq sotib olish mumkin bo'lgan [13]. 1688-yilda esa bir dona kiyik narxi 2 funt [14] ni tashkil etganligidan kelib chiqib shuni ta'kidlash o'rinliki, Fransiyada sharqshunoslarga va ushbu sohani rivojlantirish bo'lgan e'tibor juda yuqori bo'lgan.

Shundan so'ng, Bartelemi d'Erbelo qirol ko'rsatmalari asosida sharq xalqlari tarixini tadqiq etishni boshladi. Natijada, fors, arab va chig'atoy manbalari asosida o'zining fundamental asarini yaratdi. "Sharq kutubxonasi" yoki "Universal lug'at" deb nomalanuvchi mazkur tadqiqotdan Sharq davlatlari tarixi qatorida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan [4:877-888-b]. Muallif, Sohibqiron tarixini Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ahmad Ibn Arabshoh, Mirxond hamda Xondamir kabi temuriylar davri muarrixlari asarlari asosida yoritgan [4:774; 866; 877-888-b]. Mazkur asarning e'tiborli jihati shundaki, unda Amir Temur faoliyati birinchi marotaba temuriylar davri manbalari asosida Fransiyada keng talqin etildi. Bu esa temurshunoslikning ilmiy o'sishiga ijobiy ta'sir etib, XVIII asrdan boshlab temuriylar davri manbalari G'arbiy Yevropa tillarga tarjima etilishiga zamin yaratdi.

Lyudovik XIV davrida orientalistika sohasi bilan shug'ullangan fransuz mutaxassislarini mamlakatga qaytarish ishlari bilan bir vaqtda, yosh kadrlarni sharq tillarini o'zlashtirish uchun Yaqin Sharqga yuborish ishlari ham hamohang tarzda olib borildi. 1670-yilda vazir Kolber tomonidan Turkiya, Suriya va Eronga yuborilgan Peti de la Krua (1653-1713) o'n yil davomida fors, arab, turk tillarini chuqur o'zlashtirgan [8:XXV-b]. 1680-yilda davlat kotibi Kolberning ruxsati asosida vataniga qaytgan Peti de la Krua, safari davomida qo'lga kiritgan aniq ma'lumotlarini Fransiya vaziriga topshirgan [8: XXVII-b]. Shuningdek, Fransiya uchun Shimoliy Afrika davlatlarini tobeligini ta'minlashda elchi va tarjimon bo'lib xizmat qilgan Krua, 1692-yildan boshlab Qirollik kolleji (College de France) da arab tili professori lavozimida o'z faoliyatini davom ettirgan [8:XXXIV-b]. Bu olimga, o'zining ilmiy va diplomatik missiyalari davomida ko'plab qo'lga kiritgan sharq manbalarini davlat tiliga tarjima etgan holda, jamiyatga tadbiq etish imkonini yaratgan. Natijada, Amir Temur tarixining muhim sahifalari o'rin olgan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Peti de la Krua tomondan fransuz tiliga tarjima etildi. Fransuz olimi mazkur manbani "Mo'g'ullar va tatarlar imperatori, buyuk Tamerlan sifatida tanilgan Temur bekning tarixi" nomi ostida qayd etib, to'rt jildga ajratgan holda tayyorladi [8]. Lekin, Peti de la Krua "Zafarnoma"ning "Muqaddima" qismini o'z tarjimasiga kiritmadi. Fikrimizcha, fransuz sharqshunosi Shayboniylar sulolasi hukmdori Ko'chkunchixon (1510-1530) farmoyishiga ko'ra Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy [1:XII-b] tomonidan fors tilidan eski o'zbek tiliga ko'chirilgan nusxasidan o'z tadqiqotida foydalangan bo'lishi mumkin. Chunki, Muhammad Ali tarjimasi yagona nusxada mavjud bo'lib, u Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasida 3268-raqam bilan saqlanadi va unda ham muqaddima qismi mavjud emas [2:4-b]. Bu yerga u turk sultoni Mustafo Uchinchi tomonidan hijriy 1171 /milodiy 1757-yili vaqf qilingan [2:4-b]. Demak, mazkur qo'lyozma Turkiyada oldindan mavjud bo'lgan. Agar, Peti de la Kruaning faoliyati davomida bir necha marotaba Konstantinopolda bo'lganligini inobatga olinsa, olim manba to'g'risida avvaldan ma'lumotga ega bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, fransuz sharqshunosi arab, fors, turk, arman tillarini o'rganish davomida tatar tillarini ham yaxshi o'zlashtirgan [8: XXXV-b]. Bu esa olimga tarjima jarayonida ham qo'l kelgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Lyudovik XIV davridan boshlab Fransiya Amir Temur tarixini o'rganish sharqshunoslikning alohida sohasiga aylandi. Amir Temurning davlat boshqarish usullaridan andoza sifatida foydalanish, diniy masalada Sohibqironning tolerantlik mafkurasini fransuz jamiyatiga yoyish Lyudovik XIV ning kun tartibidan o'rin olgan muhim

masalalardan biri bo'lgan. Shu bois, mazkur qirol davrida temuriylar davriga oid manbalarning fransuz tiliga tarjima etilishi boshlanib, negizida bugungi kun uchun ham ilmiy ahamiyati yuqori bo'lgan asarlar fransuz tarixshunoslar tomonidan nashr ettirilganligi e'tiborga loyiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. Нашрга тайёрлашб сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ўринбоевники. Маъсул муҳаррир А.К.Арендс. – Т.: Фан, 1972. – 240 б.
2. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков.– Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
3. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент “Akademnashr”, 2021. – 592 б.
4. Barthélemy d'Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – Paris: Par la Compagnie des Libraires, 1697. – 1060 p.
5. Chardin J. Journal du voyage du Chevalier Chardin en Perse. – Amsterdam: Chez Jean wolters, 1686. – 432 p;
6. Chardin J. Journal du voyage du Chevalier Chardin en Perse. – Paris: Daniel Horthemels, 1686. – 432 p;
7. Chardin J. Journal du voyage du Chevalier Chardin en Perse. – Londres: Moses Pitt, 1686. – 349 p;
8. Cherefiddin Ali Yezdi. Histoire de Timur – bec, connu sous le nom du Grand Tamerlan, empereur des mogols et tartares. Traduite en François par feu M. Petis de la Croix. – Delf, chez Reinier Boitet, 1723. Vol 4
9. Lavissee E. Histoire de France depuis les origines jusqu'a la revolution. Tome VII. – Paris: Librairie Hachette, 1905. – 443. p.
10. Sainctyon S. Histoire du grand Tamerlan. – Paris: Chez Andre' Pralard, 1677. – 424 p.
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Imperial_and_royal_titles_of_the_Mughal_emperors
12. https://en.wikipedia.org/wiki/%C3%89cole_des_Jeunes_de_langues
13. <https://celerimus.livejournal.com/571.html>
14. <https://bdv-collection.livejournal.com/2617.html>

Исраилов Н. Р.

Преподаватель Ферганского государственного университета
nodirtemur90@gmail.com

ОБРАЗ, ПОРАЗИВШИЙ ЛЮДОВИКА XIV

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению жизни и государственной деятельности Амира Темура во Франции в период правления короля Людовика XIV. В ней освещаются факторы, побудившие к изучению истории СахибкIRONа во времена правления французского монарха, с учётом анализа политической обстановки того периода. В исследованиях французских историков, внёсших вклад в развитие тимуроведения, таких как сеньор де Сенктон, Жан Шарден, Бартелеми д'Эрбело де Моленвиль, Пети де ла Круа, рассматриваются сведения о личности Амира Темура и его государственном управлении.

Ключевые слова: Амир Темура, «Сахибкиран», Шараф ад-Дин Али Йазди, Людовик XIV, Жан-Батист Кольбер, Сеньор де Сенктон, Жан Шарден, Бартелеми д'Эрбело де Моленвиль, Пети де ла Круа, «История Великого Тамерлана», «Восточная библиотека».

Israilov N. R.

Lecturer at the Fergana state university
nodirtemur90@gmail.com

THE FIGURE WHO AMAZED LOUIS XIV

ABSTRACT

This article is dedicated to the study of the life and statecraft of Amir Temur in France during the reign of King Louis XIV. It highlights the factors that led to the interest in researching the history of Sahibqiron during the French monarch's rule, analyzing the political environment of that era. The works of French historians such as Seigneur de Saint-Cointin, Jean Chardin, Barthélemy d'Herbelot de Molainville, and Petis de la Croix—who contributed to the scholarly development of Temur studies—reflect their views on Amir Temur's personality and his approach to governance.

Key words: Amir Temur, “Sahibkiran”, Sharaf ad-Din Ali Yazdi, Louis XIV, Jean-Baptiste Colbert, Seigneur de Saintonge, Jean Chardin, Barthélemy d'Herbelot de Molainville, Petis de la Croix, “History of the Great Tamerlane”, “Bibliothèque Orientale”